



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA EMOTSIONAL HOLAT FRAZEOLOGIZMLARINING IFODALANISHI

EXPRESSION OF EMOTIONAL STATE PHRASEOLOGISMS IN THE WORKS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Hulkar Ko‘paysinova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasida magistranti

E-mail: kopaysinova92@mail.ru

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./XZBQ7371](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./XZBQ7371)

Annotatsiya. *Maqola Zahiriddin Muhammad Boburning asosiy asari “Boburnoma” va boshqa ijodiy merosida, shu jumladan, g‘azallar va ruboiylarida emotsional holatni (qayg‘u, quvonch, g‘azab, qo‘rquv, mehr-muhabbat) ifodalovchi frazeologik birliklarning o‘ziga xos ishlatilishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bobur nasriy va she‘riy matnlarida frazeologizmlar nafaqat emotsional ekspressivlikni kuchaytirish, balki tarixiy voqealarni jonli, obrazli tasvirlash vositasi sifatida qo‘llanilgan. Tadqiqotda somatik (yurak/ko‘ngil, ko‘z, jon) komponentlarga asoslangan iboralar ustunligi, ularning lirik va avtobiografik uslubdagi funksiyasi tahlil etiladi. Natijalar Bobur tilining o‘zbek frazeologiyasidagi o‘rni va emotsional nutqning boyligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, emotsional frazeologizmlar, somatik komponent, qayg‘u, quvonch, g‘azab, lingvopoetika, o‘zbek tili frazeologiyasi, g‘azallar.*

Annotation. *The article is devoted to the study of phraseological units expressing emotional states (sadness, joy, anger, fear, love) in the main work of Zahiriddin Muhammad Babur “Babur-nama” and other creative heritage, including ghazals and rubais. In Babur's prose and poetic texts, phraseologisms serve not only to enhance emotional expressiveness but also as a means of vividly and figuratively describing historical events. The research analyzes the predominance of somatic components (heart/ko'ngil, eyes, soul), their function in lyrical and autobiographical style. The results demonstrate the place of Babur's language in Uzbek phraseology and the richness of emotional speech.*

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur “Babur-nama”, emotional phraseological units, somatic component, sadness, joy, anger, linguopoetics, Uzbek language phraseology, ghazals.*

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o‘zbek adabiyotidagi noyob shaxs bo‘lib, uning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy-hujjatli manba, balki o‘zbek nasrining ilk namunalaridan biri sifatida emotsional boyluk va frazeologik obrazlarga boy. Bobur o‘z hayotini, janglarini, qayg‘u-quvonchlarini, mehrini

ochiq va samimiy ifodalagan. Bu jarayonda frazeologik birliklar (frazemalar, iboralar) muhim rol o'ynaydi: ular oddiy tasvirni emotsional rang berib, o'quvchiga ta'sirchan qiladi.

Bobur asarlarida frazeologizmlar ko'pincha somatik (tana a'zolari) komponentlar (ko'ngil, yurak, ko'z, jon) asosida shakllangan bo'lib, bu turkiy tillar uchun xos “EMOTION IS PHYSIOLOGICAL REACTION” metaforasini aks ettiradi.

Bobur ruboiylari, g'azallarga nisbatan qisqaroq bo'lishiga qaramay, emotsional intensivlikda undan kam emas: ularda ishq, g'am, sabr kabi tuyg'ular ixcham va ta'sirli ifodalanadi. Bu qo'shimcha misollar maqola hajmini boyitib, Bobur ijodining she'riy qirralarini yanada chuqurroq ochib beradi.

Tahlil qiyosiy-semantik va lingvopoetik usullarga asoslangan. Asosiy material – “Boburnoma”ning turli nashrlari (Sharq, 2002; O'qituvchi, 2008 va boshqalar), shuningdek, Bobur g'azallari to'plamlari (baburid.uz, tafakkur.net saytlaridagi matnlar). Frazeologik birliklar o'zbek frazeologik lug'atlari (Rahmatullayev, Mamatov va boshqalar) bilan solishtirilib, Bobur uslubidagi o'ziga xosliklar aniqlangan.

1. Emotsional frazeologizmlarning umumiy xususiyalari.

Bobur asarlarida Bobur tilida frazeologizmlar avtobiografik uslubga mos ravishda shaxsiy kechinmalarni ifodalaydi. Ularning ko'pchiligi kitobiy va xalq og'zaki ijodidan olingan, ammo Bobur ularni o'z hayotiy holatlari bilan bog'lab, yangi ma'no qatlamini beradi. Somatik komponentlar (ko'ngil, yurak, jon) dominant: bu emotsiyalarni “ichki og'riq” yoki “ichki harakat” sifatida ko'rsatadi. G'azallarda bu komponentlar lirik she'riy obrazlar bilan kuchaytirilgan. Uning ruboiylarida esa somatik obrazlar ixchamroq, ammo intensivroq: masalan, “jon” va “ko'ngil” komponentlari ishq va g'amni ifodalashda ko'pincha “balo” (musibat) yoki “firoq” (ayriliq) bilan bog'lanib, emotsional kontrast yaratadi. Bu ruboiylarning qisqa shakli (4 misra) frazeologizmlarni yanada konsentrlangan qiladi, she'riy ta'sirni kuchaytiradi. Ruboiylar Bobur ijodida 20 dan ortiq saqlangan bo'lib, ularda emotsional holatlar falsafiy va lirik aralash holda aks etadi, bu esa frazeologik birliklarni “Boburnoma”ning nasriy uslubidan farq qiladigan poetik darajaga olib chiqadi.

2. Asosiy emotsiyalar bo'yicha frazeologik birliklar tahlili.

Qayg'u va alam Bobur hayotida ko'p uchraydigan holat – yaqinlarini yo'qotish, mag'lubiyat, vatan sog'inchi. Frazeologizmlar ichki ezilishni kuchli ifodalaydi: *Ko'ngli singan / yuragi ezilgan* – qattiq alam chekish. Bobur Andijonni yo'qotganda yoki yaqinlarini eslaganda shunga yaqin iboralar ishlatadi [Rahmatullayev, 2022:283] *Ko'z(i)ga yoshga keldi-* – hayajonlanish, to'lqinlanish darajasidagi emotsional holat. Bobur o'g'li vafoti yoki jangdagi g'alabasi va vatan sog'inchini tasvirlashda foydalanadi [Rahmatullayev, 2022:267]. *Joniga tekkiz-* – chuqur alam yetkazish. Bu ibora dushmanlar yoki taqdirga nisbatan qo'llaniladi [Rahmatullayev, 2022:229] G'azallardan misol: “*Necha davron*



g'ussasi bo'lg'ay mening jonimg'a xos, Koshki o'lsam, dog'i bu g'ussadin bo'lsam xalos!” – bu yerda “*jonimg'a xos*” va “*g'ussa*” (qayg'u) orqali g'urbat iztirobi va vatan sog'inchi ifodalangan, somatik “*jon*” komponenti bilan uyg'unlashgan. Taqdir yukini his qilish, ya'ni shohlik, podshohlik yuki (nolish emas, tan olish) orqali o'z jonini dardga mos, g'ussa uchun yaralgan, sinov uchun tanlangan sifatida qabul qilgan va buni takrorlanmas frazeologik birliklar bilan ifodalamoqda [baburid.uz net. manbaa].

Ruboiylarida qayg'u ko'pincha “*g'am*” va “*isitma*” (kasallik) obrazlari orqali somatik tarzda tasvirlanadi. Masalan: “*Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur, Ko'zdin qochadur uyqu, chu aqsham bo'ladur. Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek, Borg'on sari bu ortadur, ul kam bo'ladur.*” Bu ruboiyda “*isitma*” va “*g'am*” frazeologik birikmasi qayg'uni jismoniy og'riq sifatida ko'rsatadi, “*ko'z*” va “*sabr*” komponentlari bilan emotsional ezilishni kuchaytiradi. Bu misol Bobur ruboiylarining falsafiy qirrasini ochib, qayg'uni sabr bilan bog'laydi, g'am va sabrni bir vaqtda ifodalab ichki ziddiyatni tasvirlaydi, o'zbek frazeologiyasida “*g'am chekish*” yoki “*sabr qilish*” kabi emotsional birliklar ko'p uchraydi [baburid.uz,2024-2026: 5,30].

2.2. Xursandchilik va quvonch.

Jangdagi g'alabalar, tabiat go'zalligi yoki farzandlar bilan bog'liq quvonch: *Ko'ngli ochil-* (gan)– ichki xursandchilik. Bobur bog'lar, bahor tasvirida ishlatadi.

Yuziga quvonch chiq- / yuzi yorish-(moq) – tashqi ifoda sifatida gavdalantiradi. G'alabadan keyin yoki sevimli joylarni ko'rganda: *osmonga chiq-* (moq,quvonchdan) –haddan tashqari xursandlikni ifodalashda Bobur, Farg'ona yoki Hindiston bog'larini eslaganda shunga o'xshash obrazlar qo'llaydi [Rahmatullayev,2022:296.577].

G'azallardan misol: “*So'rma holimniki, bo'ldum burnog'idin zorroq*” – bu g'azalda quvonchdan ko'ra sog'inch ustun, ammo “*holim*” (holat) orqali emotsional o'zgarishlar tasvirlanadi. G'azalda iztirob, ifodasiz og'riq, pushaymon, o'zini uyg'otishga urinish, halokat chegarasi, umidsiz yakun emotsional holati tadrijiy darajalanish orqali psixologik portret darajasida yozilgan.

Ruboiylarida quvonch kamroq, ammo “*vasl*” (uchrashuv) orqali ifodalanadi. Masalan: “*To qildi meni firoq aro yod habib, Mahjur ko'ngulni ayladi shod habib. Gar vasl muyassar o'lmasa, netay, ey Bobur, Faryod habibu ohu faryod habib!*” Bu yerda “*shod*” (xursand) va “*ko'ngul*” komponentlari quvonchni ayriliq (firoq) bilan kontrastda ko'rsatadi, emotsional o'zgarishni ta'kidlaydi. Bu ruboiy Bobur ijodida quvonchni muhabbat va sog'inch aralash holda tasvirlashni ko'rsatadi, frazeologik “*ko'ngil shod bo'lish*” birligiga asoslanadi [baburid.uz,2024-2026: 5,30].

G'azab va jaholat. Dushmanlarga nisbatan yoki adolatsizlik oldida: *Jahli chiq- / achchig'i chiq-* – g'azablanmoq. Bobur o'z yaqinlarining xiyonatini tasvirlashda

qon bos (gan)- – qattiq g'azab. Jang maydonidagi holatlarda: *ko'zi qon to'la-* – g'azabdan ko'zi qizarish. Dushmanlarga qarshi bo'lgan holatlarda bu kabi frazeologik holat birliklarini mahorat bilan qo'llagan.

G'azallardan misol: “*Yor yuzumni ko'rub dardu g'amim bilsa kerak*” – bu yerda g'azab emas, ammo “*dardu g'am*” (alam va qayg'u) orqali jaholatga o'xshash emotsiyalar kuchaytirilgan [Bobur,2002:151].

Ruboiylarda g'azab “*balo*” yoki “*bila ko'nglunga balo ko'z ermish. dard*” orqali ko'rsatiladi. Masalan: “*Jonim Fahm ayladim emdi, Boburo, ishq ichra. Ko'zumni qorortqon qaro ko'z ermish.*” Bu yerda “*balo*” (jaholat yoki musibat) va “*ko'z*” komponentlari g'azabni ishq bilan bog'lab, emotsional konflikt yaratadi. Bu misol frazeologik “*ko'z qorayishi*” birligini ruboiyda poetik tarzda ishlatishni ko'rsatadi [baburid.uz,2024-2026: 5,30].

2.4. Qo'rquv va xavotir. Jang oldidan yoki xavfli vaziyatlarda: *Yuragi ur-* (qo'rquvdan) – yurak urishi kuchayishi. *Joniga qo'rq* (moq)- – qattiq qo'rquv. Bobur yoshligidagi janglar yoki sayohatlarda. *Oyoqlari titra-* – qo'rquvdan titramoq.

G'azallardan misol: Bobur g'azallarida qo'rquv kamroq, ammo “*Topmadim*” radifli g'azalda hijron va xavotir ifodalangan, masalan, “*Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi*” ruboiysida g'urbat qo'rquvi “*g'urbat*” (begonalik) orqali somatik tarzda tasvirlanadi.

Ruboiylarda xavotir “*g'urbat*” va “*firoq*” orqali aks etadi. Masalan: “*Bu telba ko'ngulki, ishq aning sudidur, Ahbobning ixtiloti maqsudidur.*” Bu yerda “*telba ko'ngul*” (bezovta ko'ngil) frazeologizmi qo'rquv va xavotirni ishq ichida ko'rsatadi, somatik “*ko'ngul*” bilan emotsional noaniqlikni ta'kidlaydi [baburid.uz,2024-2026: 5,30].

2.5. Sevgi va mehr. Bobur she'rlarida va “Boburnoma”da oila, farzandlar, tabiatga mehr: *Ko'ngli tush-* – oshiq bo'lmoq. *Yuragi ur-* (mehr bilan) – yurak urishi.

Jonini ber- – fidoyi mehr. Bobur farzandlari yoki vatanga nisbatan qo'llanilgan emotsional holat frazeologizmlaridir [Rahmatullayev,2022: 285,570].

G'azallardan misol: “*Yor yuzumni ko'rub ...*” g'azalida– bu yerda “*yor*” (sevgan) va “*dardu g'am*” orqali mehr va hijron aralash emotsiya, ruhiy azob, ichki iztirob holati tasvirlangan. G'azalda asosan, dardu g'am, hajr, emotsional holatlari kuchli obrazlar orqali ifodalangan. Bobur g'azallarida ishq mavzusi 119 g'azalning ko'pchiligida, masalan, visol va hijron obrazlarida uchraydi.

Ruboiylarda sevgi “*ishq*” va “*habib*” (sevgan) orqali kuchli ifodalanadi. Masalan: “*To qildi meni firoq aro yod habib...*”. Bu ruboiyda “*firoq*” (ayriliq) va “*vasl*” (uchrashuv) frazeologizmlari mehrni qayg'u bilan aralashtirib, emotsional boylik yaratadi. “*Majruh ko'ngil*”, “*sabr qolmaslik*” kabi emotsional holat birliklari orqali ruhiy dramatism ochib berilgan. Qo'shimcha tahlil: Bobur ruboiylari she'riy merosining muhim qismi bo'lib, ularda frazeologik birliklar: “*ishq ichra*” (sevgi ichida) kabi iboralar orqali metafizik darajaga chiqadi, bu

o‘zbek adabiyotida mehri falsafiy tushunishga yordam beradi [baburid.uz,2024-2026: 5,30].

Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida, jumladan, g‘azal va ruboiylarida emotsional frazeologizmlar avtobiografik uslubni boyitib, tarixiy voqealarni shaxsiy kechinmalar bilan bog‘laydi. Somatik komponentlar (ko‘ngil, yurak, jon, ko‘z) ustun bo‘lib, emotsiyalarni fiziologik reaksiya sifatida ko‘rsatadi. Bu birliklar o‘zbek frazeologiyasining qadimiy qatlamini saqlab, Bobur tilining lirik va samimiy xususiyatini ochib beradi. G‘azallar va ruboiylaridagi emotsional holatlar Bobur asarlarining ifoda kuchini oshiradi, ichki kechinmalarini anglashimizda yordam beradi. Bobur asarlarining tahlilida Bobur ijodining o‘ziga xos, takrorlanmas badiiy emotsiaga to‘la kuchini ochib berishga harakat qilindi.

Tadqiqot natijasida, Bobur ijodi, jumladan, she‘riyatidagi emotsional frazeologik holatlarni o‘rganish dolzarb ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

- 1.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 335 b
- 2.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
- 3.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2006–2008.
4. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005. 5. Kövecses Z. Metaphor and Emotion. – Cambridge University Press, 2000.
- 6.Teshaboeva Z. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar (avtoreferat va maqolalar. [https://tsuull.uz /sites/default /files/ avtoref_dsc._teshaboeva_z. 16.08.2021.pdf]
7. O‘zbek adabiyotidagi frazeologik birliklar bo‘yicha tadqiqotlar (turli jurnallar, 2020–2025yillar) [Firogiy, 2020/2025: 1/15] [https://www.researchgate.net/publication/369672028]
8. Bobur g‘azallari to‘plamlari: tafakkur.net va baburid.uz saytlari (2023–2024 yillar natijalari).[2023-2024:35/65] [https://tafakkur.net/bobur-gazallari]
9. Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari: tafakkur.net va baburid.uz manbalari (2024–2026 yillar, onlayn arxivlar)
- 10.Teshaboyeva Z. A Cognitive Study of “Baburname”S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary. – Pacific Northwest Research Journal, 2022.[Teshaboeva,2022:1,7,8,10]
- 11.Teshaboyeva Z. SCIENTIFIC AND THEORETICAL STUDY OF “BABURNAME” AND ITS' TRANSLATIONS INTO THE WORLD LANGUAGES. – Uzbek Literature, 2020.
- 12.Teshaboyeva Z. Comparative Analysis Of English Translations Of Phrazeological Uniits In “Baburname”. – ResearchGate, 2022.
- 13.Teshaboyeva Z. A Comparative Analysis Of Phrazeological Units In “Baburname” And Their Different English Translations. – Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, 2019.



14. Teshaboyeva Z. PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE TRANSLATIONS OF BOBURNAMA. – European Journal of Research Development and Sustainability, 2023
15. Aslonov I. PSYCHOLOGY OF WORDS IN “BOBURNOMA”. – European Journal of Education and Development of Language, 2023.
16. Sayfilloyeva J. LANGUAGE AND EMOTION IN LITERATURE: EXPRESSING FEELINGS IN ENGLISH AND UZBEK. – International Scientific Practical Conference, 2024.
17. Tuxtaro va Y. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSIDA TILGA OID MUNOSABATLAR TAHLILI. – Zenodo, 2022.
18. Ishqurbanova M. Frazeologik birliklarning o‘zbek tilidagi tadqiqotlari. – Scribd, 2021.
19. Tuxtasinova M. Bobur asarlari Budagov lug‘atida. – Academia.edu, 2023.
20. Jo‘raboyev O. Zahiriddin Muhammad Bobur va XVI asr o‘zbek adabiyoti. – Tadqiqot.uz, 2023.